

BO'LAJAK TARBIYACHILARNING ILMYI DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHNING ZARURIYATI

Davranova Gulbahor Numondjonovna

Osiyo xalqaro universiteti "Pedagogika va psixologiya"

kafedrası o'qituvchisi

(sunny.davranova@gmail.com)

Annotatsiya: Tarbiyachilik kasbi bolalarning intellektual, axloqiy, jismoniy, psixologik va ruhiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyachilarning pedagogik va metodik bilimlari, shuningdek, ularning ilmiy dunyoqarashi, ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bo'lajak tarbiyachilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, nafaqat ta'limning sifatini oshirish, balki jamiyatda ijtimoiy va madaniy muammolarni hal qilish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishning zaruriyati, usullari va amaliyotdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ilmiy dunyoqarash, bo'lajak tarbiyachilar, pedagogik faoliyat, innovatsion pedagogik metodlar, tarbiyachilarning ilmiy izlanishlari, pedagogik ta'lim, ta'lim jarayonining samaradorligi, tarbiyachilarning ilmiy salohiyati, pedagogik texnologiyalar, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim, tarbiyaning ijtimoiy mas'uliyati, yangi pedagogik yondashuvlar, ilmiy tadqiqotlar, kreativ yondashuv, pedagogik metodlar va uslublar.

THE NEED TO EXPAND THE SCIENTIFIC WORLDVIEW OF FUTURE EDUCATORS

Davranova Gulbahor Numondjonovna

Teacher at the Department of "Pedagogy and Psychology"

Asian International University

(sunny.davranova@gmail.com)

Abstract: The profession of upbringing has a great influence on the intellectual, moral, physical, psychological and mental development of children. Pedagogical and methodological knowledge of educators, as well as their scientific worldview, plays a decisive role in ensuring the effectiveness of the educational process. It is important to expand the scientific worldview of future educators, not only to improve the quality of education, but also to solve social and cultural problems in society. This article analyzes the need, methods and importance in practice to expand the scientific worldview of future educators.

Keywords: scientific worldview, future educators, pedagogical activity, innovative pedagogical methods, scientific research of educators, pedagogical education, effectiveness of the educational process, scientific potential of educators, pedagogical technologies, practice-oriented education, social responsibility of education, new pedagogical approaches, scientific research, creative approach, pedagogical methods and methods.

Kirish. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri deb qaraldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mazkur sohada amalga oshirgan izchil islohotlari negizida maktabgacha ta'lim


tashkilotlari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari, dunyoqarashi keng, mustaqil fikr lay oladigan hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam.

Asosiy qism. Bizga ma'lumki, shaxsning dunyoqarashi ilk bolalik yillaridan boshlab shakllana boshlaydi. Bola borliq va dunyoni his etar ekan, dastlab barcha voqea-hodisalarni o'z ongida aks ettiradi, analiz va sintez qiladi. Unga yangi nom berib, mohiyati va ahamiyatini baholab boradi. Bu esa uning olam, kishilar, narsa va jismlar haqidagi bir butun tasavvur va kechinmalari, orzu-umidlari, qadr-qimmatga ega bo'lgan voqea-hodisalari, qolaversa, g'oyalarini o'z milliy tilida ifoda etish imkoniyatini yaratadi. Dunyoqarash - dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z - o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari. Mavjud manbalarni o'rganish va tahlillarga asoslanib, shuni ta'kidlash lozimki, bolaning dunyoqarashini o'stirish qanchalik erta boshlansa, uning intellekti, tafakkuri shunchalik yuksak bo'ladi. Bunday bolalardan kelajakda buyuk kashfiyot egalari, notiqar, siyosat va davlat arboblari yetishib chiqadi.

Pedagogik va psixologik ta'riflardan ko'rinib turibdiki, dunyoqarash tushunchasi odam o'zining onadan tug'ilishi bilan dunyoni ko'rishidan boshlanib, yuksak intellektual salohiyatni egallagunga qadar rivojlanib boradi. Ular «aql → ong → fikr → ilm → bilim → qarash → g'oya → ta'limot» tizim orqali rivojlanib, takomillashib boradi.

Yuqorida qayd etilganidek, ongning mavjudligidan fikr va ularni ifodalovchi ma'lumotlar shakllanib, ong tafakkurning shakllanishida mustahkam asos bo'lib hisoblanadi. Shu sababli ham kishi ongida, uning qalbidagi e'tiqodi asosida dunyoqarash shakllanadi, ya'ni dunyoqarash – odamning tevarak atrofidagi olamga va undagi o'zining tutgan o'rniga qarashlaridan kelib chiqqan tizim. Kishilarda dunyoqarashning quyidagi turlari namoyon bo'ladi: falsafiy, diniy, ilmiy, aqliy, siyosiy, estetik, huquqiy. Demak, dunyoqarash tizimini quyidagi chizma orqali ifodalashimiz mumkin:

Demak, dunyoqarash tizimini quyidagi chizma orqali ifodalashimiz mumkin:



1–rasm. Dunyoqarash va uning tarkibiy qismlari.

Dunyoqarash shakllanishining yana bir xususiyati shundan iboratki, u xususiy ko'rinishlardan umumiy ko'rinishlarga, ya'ni individual xususiyatlardan ijtimoiy xususiyatlargacha rivojlanib, takomillashib boraveradi va shuning bilan birga, u ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas

bog'liq. Dunyoqarash kishilarning yoshi, hayot tajribasi, intellektual salohiyati, mafkurasi va shu kabilar bilan bog'liq ravishda rivojlanib kengayib boradi.

Dunyoqarash insonning o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu borada hozirgi kunda yoshlarimizning ongini o'stirish va tafakkurini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bular orqali ularni intellektual, salohiyatli, siyosiy ongli qilib tarbiyalash imkoniyati yaratiladi. Bu esa erkin va mustaqil fikrlaydigan, o'zligini anglay oladigan, ya'ni har xil zararli oqimlarga qo'shilib ketavermaydigan bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda mustahkam asos bo'la oladi.

Shaxsning dunyoqarashi, ayniqsa, ilmiy dunyoqarashning kengligi ularning asosiy tarkibiy qismlari: aql, ong, fikr, ilm, bilim, ilmiy bilim, ilmiy qarash, e'tiqod, ilmiy tafakkur va shu kabilarga bog'liq.

Dastlab individ dunyoni hissiy sezadi (dunyoni his qilish). Bunda individ voqelikni bevosita his etish natijasida anglaydi. Keyin voqelik haqida to'plangan bilimlar asosida individual dunyoqarash paydo bo'ladi. Bu dunyoni anglash deyiladi. Shaxsning dunyoni anglashi orqali uning o'zini anglashi ham shakllanib boraveradi. Shu tariqa dunyo haqidagi barcha bilimlar yuksak darajada umumlashtiriladi va yaxlit dunyoqarash hosil bo'ladi.

Bulardan tashqari, dunyoqarashning ko'lami (individning butun hayoti mobaynida rivojlanib, kengayib boruvchi jihatlari), mazmuni (individ ongida voqelikning xilma-xil jihatlari qay darajada qamrab olinganligini aks ettiradi) va markazi yoki tayanch nuqtasi (individning qanday shaxsiy hamda ijtimoiy manfaatlar majmuasi doirasidan turib olam haqida fikr yuritishi) kabi jihatlari ham bor.

Ma'lumki, inson o'z hayoti davomida o'zidan oldin o'tgan kishilarning turmush tajribasiga (tarziga), to'plangan bilim, ko'nikma va malakalariga, ya'ni qadriyatlariga tayanadi. Shu sababli ham dunyoqarash ayniqsa ilmiy dunyoqarash kishilarning axloq me'yorlari, hayotni yaxshilash borasidagi ongli intilishlari, qiziqishlari mehnat faoliyatiga va turmush tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ular hayotida katta amaliy ma'no (mazmun) kasb etadi.

Ilmiy dunyoqarash, odamning dunyoni, uning qonuniyatlarini, vaziyatlarni tahlil qilish va ularga nisbatan to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Bu shaxsning atrof-muhitga nisbatan idrokini, ijtimoiy masalalarni hal qilishda yondashuvini, fikrlashning mantiqiy, tizimli va ilmiy asoslangan bo'lishini anglatadi. Tarbiyachilar uchun ilmiy dunyoqarash faqat akademik bilimlarni egallash bilan cheklanmaydi, balki ularga nafaqat nazariy, balki amaliy yondashuvlarni ham o'rgatishni anglatadi.

Bo'lajak tarbiyachilarni ilmiy dunyoqarash bilan ta'minlash, ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatini samarali tashkil etishga yordam beradi. Ular faqatgina pedagogik bilimlarni o'zlashtirib qolmasdan, shuningdek, o'ziga xos yondashuvlarni yaratish, ijtimoiy masalalarda ilmiy nuqtai nazardan fikr yuritish va bolalar tarbiyasiga yangicha qarashni shakllantiradi. Ilmiy dunyoqarash, asosan, uchta asosiy komponentdan iborat:



Bu komponentlar tarbiyachilarning ilmiy fikrlashini shakllantiradi va ularni o'z faoliyatlarida zamonaviy pedagogik texnikalarni, metodlarni va uslublarni qo'llashga tayyorlaydi.

Bo'lajak tarbiyachilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishning zaruriyati quyidagilardan iborat:

a. Pedagogik jarayonni ilmiy asosda yuritish

Pedagogik faoliyat, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda nafaqat amaliy bilimlarga, balki ilmiy nazariy asosga tayanishi kerak. Tarbiyachilarning ilmiy dunyoqarashi, ularga bilimlarni mustahkamlash va o'rgatishning samarali yo'llarini topishda yordam beradi. Ayniqsa, pedagogik jarayonning murakkabligi va uning turli bosqichlaridagi o'zgarishlarni to'g'ri idrok etish uchun ilmiy qarashlar zarur. Ilmiy yondashuvlar tarbiyachilarga o'quvchilarning rivojlanishini nazorat qilish va ularning ehtiyojlariga mos ta'lim tizimini yaratishda yordam beradi.

b. Jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashish

Hozirgi kunda jamiyat tez sur'atlarda rivojlanmoqda, va har bir tarbiyachi, o'zgarishlarga moslashish, yangi ilmiy kashfiyotlarni va pedagogik metodlarni o'zlashtirishda ilg'or yondashuvlarni qo'llashga majbur. Masalan, zamonaviy bilimlarni egallash, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash kabi talablar mavjud. Ilmiy dunyoqarashni kengaytirish tarbiyachilarga bu o'zgarishlarga yanada moslashuvchan bo'lish imkonini beradi.

c. Innovatsion pedagogik metodlarni ishlab chiqish va qo'llash

Ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan tarbiyachilar nafaqat o'zlariga mavjud bilimlarni o'zlashtirishadi, balki o'quvchilarga o'rgatishning yangi usullarini yaratish va qo'llashga qodir bo'lishadi. Innovatsion metodlar, masalan, loyiha asosidagi ta'lim, gamifikatsiya, va onlayn resurslardan foydalanish — bularning barchasi o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish imkonini yaratadi. Tarbiyachilar o'zlarining pedagogik faoliyatlarini doimiy ravishda rivojlantirish uchun ilmiy izlanishlarni olib borishlari va yangi metodlarni ishlab chiqishlari kerak.

d. Tarbiyachilarning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish

Bo'lajak tarbiyachilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, nafaqat pedagogik faoliyatda, balki ijtimoiy hayotda ham ularga mas'uliyatni his qilishga yordam beradi. Ijtimoiy mas'uliyat tarbiyachilarning bolalar tarbiyasidagi rolini anglashlariga, o'zlarining ishiga jiddiy yondashishlariga imkon yaratadi. Ular o'z ilmiy bilimlari va pedagogik tajribalarini jamiyatda, uning rivojlanishiga hissa qo'shishda qo'llay olishlari kerak.

Bo'lajak tarbiyachilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish yo'llari quyidagilardan iborat:

Ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish

Bo'lajak tarbiyachilarni ilmiy dunyoqarashga ega bo'lishlariga yordam berish uchun, ularni ilmiy tadqiqotlar bilan tanishtirish zarur. Ilmiy faoliyatni rivojlantirish, talabalarga ilmiy tadqiqot metodlarini o'rgatish, ilmiy maqolalar yozish va amaliyotlarni tahlil qilishni o'rgatish orqali ilmiy izlanishlarga rag'batlantirish mumkin. Tadqiqotlar tarbiyachilarning fikrlashini kengaytiradi, yangi bilimlarni olish va ularga ilmiy nuqtai nazardan yondashish imkonini yaratadi.

Pedagogik metodlar va texnologiyalarga yangicha yondashuv

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'lajak tarbiyachilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga katta yordam beradi. Masalan, internetda mavjud bo'lgan ilmiy materiallar va tadqiqotlarni o'qish, yangi pedagogik uslublarni o'rganish va amaliyotda qo'llash, zamonaviy o'quv texnologiyalarini sinab ko'rish orqali pedagogik faoliyatni rivojlantirish mumkin. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, interaktiv ta'lim platformalari, o'quv ilovalari, videokonferensiyalar va boshqalar, o'quvchilarni motivatsiya qilish va bilim olishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Amaliyotga yo'naltirilgan ilmiy ta'lim

Tarbiyachilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish uchun, o'quv jarayonida amaliyot va ilmiy faoliyatni birlashtirish muhimdir. Tarbiyachilarga o'qitish usullarini nafaqat nazariy, balki amaliyotda ham qo'llashni o'rgatish kerak. O'quvchilarni turli amaliy mashg'ulotlar, interaktiv o'yinlar, loyiha ishlarida ishtirok etishga undash orqali ularning ilmiy faoliyatni real hayotga qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Fikr yuritish va muloqot madaniyatini rivojlantirish

Ilmiy dunyoqarashni kengaytirish uchun fikr yuritish, muloqot va guruh ishlariga e'tibor berish zarur. Talabalar o'rtasida ilmiy fikr almashish, munozaralar o'tkazish, yangi fikrlarni ilgari surish va tahlil qilish orqali o'z fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Muammo yechish, tanqidiy fikrlash va ilmiy muhokamalar olib borish — bularning barchasi tarbiyachilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

Onlayn ta'lim va resurslardan foydalanish

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'lajak tarbiyachilarga ilmiy bilimlarini kengaytirish va yangilashda katta yordam beradi. Onlayn ta'lim kurslari, ilmiy maqolalar, virtual kutubxonalar va ilmiy tadqiqotlar bo'yicha resurslar tarbiyachilarga o'z bilimlarini yangi davr talablariga mos ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Bu o'qituvchilarga global ilmiy jamiyat bilan bog'lanishga yordam beradi va ularni o'z faoliyatida yangi ilmiy yondashuvlarni qo'llashga undaydi.

Xulosa. Bo'lajak tarbiyachilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, ta'lim tizimining rivojlanishi va bolalarning sifatli tarbiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachilar ilmiy tadqiqotlar va zamonaviy pedagogik metodlar yordamida ta'lim jarayonini samarali va innovatsion tarzda tashkil etishga qodir bo'lishlari kerak. Bu jarayon, o'z navbatida, jamiyatdagi tarbiyaning sifatini yaxshilash, tarbiyachilarning professional mahoratini oshirish va bolalarning rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Shuning uchun, ilmiy dunyoqarashni kengaytirish va uning amaliyotga tatbiq etilishi tarbiyachilarning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika. O'quv qo'llanma.-T.: Fan, 2004.-182 b.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg’armasi, 2008. – 180 b.
3. Numondjonovna, D. G. (2021). The use of interactive methods in forming the ecological worldview of preschool children. *Middle European Scientific Bulletin*, 11.
4. Numondjonovna, D. G. (2022). The Importance of Aesthetic Education in Comprehensive Education of Preschool Children. *International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences*, 2(2), 54-57.
5. Numondjonovna, D. G. (2021). The importance of using multimedia to expand children's worldwide during the activities. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(7), 28-31.
6. Davranova Gulbahor, N. (2022). Advantages of using modern information technologies in teaching russian language for primary school students. *American journal of social and humanitarian research*, 3(1), 333-338.
7. Davranova, G. N. (2022). Use of Information Technologies in Primary School Russian Lessons. *European journal of innovation in nonformal education*, 2(6), 73-78.
8. Numondjonovna, D. G. (2022). Maktabgacha va boshlang 'ich ta'lim tizimida sifat samaradorligini oshirishning innovatsion yondashuvi. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 144-146.
9. Davranova, G. N. (2023, January). THE DEVELOPMENT OF PUPILS'SPEECH IN RUSSIAN LESSONS IN ELEMENTARY SCHOOL. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 2, No. 1, pp. 147-154).
10. Numondjonovna, D. G. (2022). Tabiat bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 363-367.
11. Numondjonovna, D. G. (2024). SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDAGI TA'LIMNING AHAMIYATI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(1), 197-202.
12. Numondjonovna, D. G. (2024). FORM, METHOD, TOOLS OF USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN TEACHING RUSSIAN IN PRIMARY SCHOOL PUPILS. *Miasto Przyszłości*, 47, 495-499.
13. Numondjonovna, D. G. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining rus tilida lug'atlar bilan ishlash jarayonida kreativligini oshirish. *Pedagogs jurnali*, 1(1), 168-170.
14. Davranova, G. N. (2023). Theoretical And Practical Aspects Of Applying Information Technology In Teaching The Russian Language. *Innovative Development In The Global Science*, 2(10), 106-111.
15. Davranova, G. N. (2023). Using Multimedia Technologies In Russian Language Lessons In Elementary Grades: The Way To More Effective Learning. *The Role Of Science And Innovation In The Modern World*, 1(8), 48-53.
16. Давранова, Г. (2023). Современная ситуация и возможности использования информационно-коммуникационных технологий в обучении русскому языку учащихся начальных классов. *Информатика и инженерные технологии*, 1(1), 219-223.
17. Davranova, G. (2024). MONTESSORI VA VALDORF TIZIMIGA ASOSLANGAN BOLALAR BOG'CHALARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(9), 477-489.

18. Numondjonovna, D. G. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA RUS TILINI O‘QITISHNI AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI. *Role of Exact and Natural Sciences During the Renaissance III*, 87-93.
19. Numondjonovna, D. G. ZAMONAVIY TA‘LIMDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONI VA UNING PEDAGOGIK IMKINOYATLARI. *EDAGOGIK AHORAT*.
20. Sobirovna, S. Y. (2024). MAKTABGACHA TA‘LIMDA NUTQ, MULOQOT OQISH VA YOZISH MALAKALARINING SOHALARI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 52-62.
21. Sobirovna, S. Y. (2023). Creativity in the work of an educator. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 361-367.
22. Yulduz, S. (2024). SYUJETLI-ROLLI OYINLARNING BOLA FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 2(1), 44-51.
23. Yulduz, S. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK TA‘LIM BERISHNING O‘ZIGA XOSLIGI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 124-129.
24. Sobirovna, S. Y. (2023). O‘YIN ORQALI BOLA TAFAKKURI VA NUTQINI OSTIRISH. *SAMARALI TA‘LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(3), 93-99.
25. Sobirovna, S. Y. (2022). PEDAGOGNING KREATIVLIGI BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHINING ZARUR SHARTI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 219-220.
26. Yulduz, S. (2023). KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOLALAR NUTQI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 23(2), 87-92.
27. O‘ktam qizi Buxoro, S. M. (2022). BOLANING NUTQINI RIVOJLANTIRUVCHI O‘YINLAR. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 484-486.
28. O‘ktam qizi Shukurova, M. (2023). Speech grow up in training using interactive methods. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 357-360.
29. Oktam’s, S. M. (2023). Methods and Tools of Speech Development of Small Group Children in Preschool Education Organization. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 104-108.
30. O‘ktam qizi Shukurova, M. (2023). The importance of genres of folklore in the education of preschool children. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 96-99.
31. Shukurova, M. (2023). METHODS AND METHODS OF INCREASING CHILDREN’S SPEECH IN A PRESCHOOL ORGANIZATION. *Modern Science and Research*, 2(10), 477-480.